


1. Hujayra bo'linish paytida yadro DNKsining o'zgarishi grafikda ko'rsatilgan.




Berilgan vaqt davrlari haqida qaysi fikr NOO'RIN?

- A) Gametalar 5-davr oxrida shakllangan bo'lishi mumkin.
- B) Xromosomalar soni va DNK miqdori bir vaqtda ortadi
- C) 3-vaqtda n xromosomalari ikkita hujayra hosil bo'ladi.
- D) 4-vaqt davrida opa singil xromatidalarning ajralishi joy oladi.

2. Olxo'ri o'simligining changdonida 80 ta diploid to'plamli hujayra gametalar hosil qilishda ishtirok etdi. Agar o'simlikda 128 ta urug' hosil bo'lgan bo'lsa, hosil bo'lgan spermiylarning necha foizi markaziy hujayraning urug'lanishida qatnashgan?

- A) 35 B) 20 C) 25 D) 60

3. Insondagi uzun suyak tuzilishi sxematik tarzda tasvirlangan



Yassi suyaklarda raqamlangan qismlardan qaysi biri ko'rinMAYdi.

- A) faqat III B) II va IV C) I va III D) III va IV

4. Daraxt tanasining ko'ndalang kesimi quyida ko'rsatilgan.



Shunga ko'ra Kn bilan ko'rsatilgan yosh halqasining qalinligi L bilan ko'rsatilgan yosh halqasidan farq qiladi;

- I. Atrof muhit harorati II. Yomg'ir III. Yorug'lik miqdori

Uning qaysi xususiyatlari samarali bo'ladi?

- A) Faqat I B) Faqat II C) Faqat III D) I,II,III

5. Laboratiryada o'quvchilar petri idishiga 1 ta pichan bakteriyasini ekishdi. Pichan bakteriyasi qulay sharoitda har 20-30 daqiqida bo'linib ko'payadi. Agar petri idishi ichida bakteriya maksimal tezlikda ko'paysa 72 soat vaqt ichida idish bakteriyaga to'ladi.



Ma'lumotlardan foydalanib quyidagilar to'g'ri bo'lsa T noto'g'ri bo'lsa N bilan belgilang.


1. Petri idishi yarim to'la bo'lishi uchun 36 soat vaqt sarflanadi 2. Maksimal telikda bo'linsa jami 144 marotaba bo'linish kuzatilgan. 3. Minimal tezlikda bo'linsa jami 216 marotaba bo'linish kuzatilgan. 4. Petri idishi yarim to'lis hi uchun 71 soatdan ko'p vaqt sarflangan.

A)NNNT B)TTTN C)NTTN D)TNNN

6.Arpa o'simligida xlorofill pigmentini sintezlashda ikkita ferment qatnashadi. Ularning bo'lmasligipigment sintezining buzilishiga olib boradi. Harbir fermentning sintezi har xil autosomalarda joylashgan dominant (A va B) genlar bilan ifodalanadi. Birinchi ferment sinteziga javobgargenning bo'lmasligi o'simliklarning oq rangda, ikkinchi ferment sinteziga javobgar genning bo'lmasligi o'simliklarning sariq rangda bo'lishiga olib keladi. Ushbu genlarning birgalikda bo'lmasligi o'simlikning oq rangini, birgalikda bo'lishi yashil rangini ta'minlaydi. Agar digeterozigotali (A-0,5; b-0,4 chastotaga ega)arpalar o'zaro chatishtirilsa, avlodda olingan duragaylarning necha foizi faqat yashil rangli bo'ladi?

A)51.12 B)30 C)56,25 D)100

7.



Yuqoridagi sxemada ko'rsatilgan organga ega organizmlarni aniqlang.

A) qunduz, kabarga, dengiz mushugi; B) yaguar, suv ayg'iri, kashalot;
C) oq ayiq, hind karkidoni, nutriya; D) yovvoyi cho'chqa, giyena iti, muflon;

8. +2°C (I) va +1°C (II) da urug'i unib chiqadigan o'simliklarni to'pgul turi (a) va meva xili (b) bilan juftlab ko'rsating.

1) kallakcha yoki boshcha; 2) murakkab shingil; 3) murakkab boshqoq; 4) oddiy shingil; 5) gajak;
6) bir urug'li quruq meva; 7) ko'p urug'li quruq meva; 8) don meva; 9) dukkak meva; 10) qozoq meva;
A) I-a-1,2; b-7,10; II-a-1,3; b-6,8; B) I-a-3,4; b-6,9; II-a-4,5; b-8,10;
C) I-a-1,4; b-7,9; II-a-1,3; b-8,9; D) I-a-3,4; b-6,7; II-a-2,3; b-8,10;

9.No'xat o'simligi urug'i sariq rangda bo'lishi (A) yashil bo'lishi(a) ustidan dominantlik qiladi. Tajribada gomozigot sariq va yashil no'xatlar chatishtirildi. Olingan avlod urug'lariga kolxitsin ta'sir ettirilib, 6n to'plamli avtopoliploid o'simlik hosil qilindi. U o'simlik 3n to'plamli muazzansatsiz poliploid yashil o'simlik bilan chatishtirildi va 1200 ta o'simlik olindi. Olingan ma'lumotlar asosida Sariq donlilar sonini aniqlang.

A)200 B)60 C)1140 D)299


10. Ko'k kaptar 3 minut dam olib, 4 minut uchdi, keyin, yana 2 minut dam olib, yana 3 minut uchdi. Shu vaqt oralig'ida u necha marta nafas olgan

- A) 8000 B) 1150 C) 2930 D) 1680

11. Silliqlik tolali muskulning skelet muskullaridan farqlarini aniqlang.

1) bir yadroli; 2) ko'p yadroli; 3) duksimon shaklga ega; 4) siydik chiqarish yo'llaridajoylashgan; 5) harakati odam ixtiyoriga bog'liq.

- A) 1, 5 B) 2, 5 C) 1, 4 D) 2, 3




12.


Yuqorida keltirilgan o'zgarish hodisalaridan qaysi birini shung'iya amalga oshira olmaydi?

- A) Y B) faqat Z C) X va Y D) X, Y, Z va T

13. Quyidagi qon aylanish sxemasi qaysi organizmlarga xos?



- A) tuban tuzilgan xordali hayvonlarga B) oldingi miya yarimsharlarga bo'lingan hayvonlarga
C) Kamar suyaklar umurtqa pog'onasiga tutashmagan hayvonlarga D) Qon aylanish sistemasi dastlab paydo bo'lgan hayvonlarga




14.

Yuqoridagi grafiklarda berilgan o'zgarishlarning qaysi biri oqsil va kraxmal sintezi paytida umumiy kuzatilishi mumkin?

- A) faqat I B) faqat II C) faqat III D) I, II va III

15. Qon aylanishi rasmda sxematiklashtirilgan.



Qaysi tomir soni 4 ta bo'ladi?

A) P B) K C) N, O va P D) N

16. Zarpechakda ildizning yo'qligi (1), sebarga gulida nektar bezining bo'lishi (2) qaysi jarayonlarga misol bo'ladi?

- a) idioadaptatsiya; b) aromorfoz; c) biologik regress; d) degeneratsiya
A) 1-c; 2-b B) 1-b; 2-a C) 1-d; 2-a D) 1-d; 2-b

17. Qaysi belgilar ikki juft noallel retsessiv gen ishtirokida yuzaga chiqadi?

- 1) bug'doy donining oq rangi; 2) xo'roz tojining yong'oqsimon shakli; 3) nomozshomgul gulining pushti rangda bo'lishi; 4) xoldor to'tilar patining oq rangi
A) 1,4 B) 1,3 C) 2,3 D) 3,4

18. Energiya almashinuvini 1800 gr glyukoza to'liq va chala parchalanganda sitoplazmada chiqqan issiqlik energiyasini va mitoxondriyada ATF da to'plangan energiya yig'indisi 6960 kj bo'lsa. To'la parchalangan glukoza molini aniqlang.

A)2 B) 4 C) 6 D) 8

19. DNK qo'sh zanjiridagi A+T yig'indisi G sonidan 18taga ko'p. S umumiy nukleotidlarning 30% ni tashkil qiladi. DNK

1-zanjiridagi T lar soni 2-zanjirdagi G lar sonidan 2marta ko'p bo'lsa, DNK fragmenti uzunligini aniqlang(qo'shni nukleotidlar orasidagi masofa 0,34nm).

A)30,6 B)33,6 C)36,72 D)24,48

20. Quyidagi jadvalda uch xil katakdagi ba'zi tuzilmalar-ning mavjudligi (+) va yo'qligi (-) ma'lumotlari ko'rsatilgan.

Hujayra	Ribosoma	mitaxondriya	Xloroplast	hujayra devori
1	+	--	--	+
2	+	+	--	--
3	+	+	+	+

Shunga ko'ra quyidaglardan qaysi biri to'g'ri:

- 1 – hujayra zaxira modda sifatida polifasfatlar to'playdi
2 – hujayra yashil evglenaga xos
3 – hujayra zarpechakning barg hujayrasi

A) faqat 1 to'g'ri; B) 1, 2; C) 1, 3; D) faqat 3 to'g'ri



21. Pomidor o'simligida qizil meva(A), sariq meva(a) dan ustunlik qiladi. Tuksizlik geni(T) tuklilik(t) ustidan

♀/♂	AT	At	aT	at
AT		I		
At			II	
aT	III			IV
at				V

Bunga ko'ra Pennet katakchasida ko'rsatilgan I, II, III, IV, V organizmlar fenotipi to'g'ri ko'rsatilMAGAN javobni aniqlang.

A) I – qizil, tuksiz B) II – qizil, tuksiz C) III – sariq, tukli D) IV – sariq, tuksiz; V – sariq, tukli

22. Ikki xil DNK molekulalari quyida ko'rsatilgan.



Ushbu DNK molekulalari haqidagi quyidagi fikrlardan qaysi biri noto'g'ri?

A) Purin/pirimidin nisbati 1 ga teng: B) Tarkibida teng miqdordagi nukleotidlar mavjud
C) U teng miqdordagi fosfodiefir bog'larini o'z ichiga oladi. D) Unda teng miqdordagi kuchsiz vodorod aloqalari mavjud.

23.

	Energiya hosil qildi(gr)	Boshqa moddaga aylandi (gr)	Energiya miqdori(kkal)
Oqsil	z	50	410
Uglevod	k	150	l
x	50	0	y
500 gr	N	M	Q

Yuqoridagi jadval haiqda to'g'ri ma'lumot uchun T, noto'g'ri ma'lumot uchun N bilan belgilang.

1.X- tarkibida gleserin bor 2. Z- assimliyatsida ishtirok etgan uglevod miqdoriga teng 3.y-930 4. Q ning qiymati-1025
5. N ning qiymati M ning qiymatidan katta

A)TNTTT B)TNNTT C)TTNNT D)TNTNT

24. Makkajo'xori o'simligida A geni etdor B geni meva sirti qora bo'lishiga javobgar va bu belgilar turli autosomada birikkan holda irsiylanadi. Barcha genlari geterozigotali o'simlik va birinchi belgisi ressesiv,boshqa genlari geterozigot o'simliklar chatishtirildi natijada 800 ta o'simlik olindi.

1	Etdor qora	310
2	Etdor sariq	90
3	Yupqa etli qora	295
4	Yupqa sariq	105

Ozodlik darajasi	Ehtimollik		
	0,10	0,05	0,01
1	1.642	3.841	6.635
2	3.219	5.991	9.210
3	4.642	7.815	11.341
4	5.989	9.488	13.277

1. Nazariy kutilgan qoralar 600 ta 2. Ozodlik darajasi -3 3. Ozodlik darajasi -4 4. 0 gipotezasiga mos 5. Amaliy sariq nazariy sariqlardan 5 ta farq qiladi

Yuqoridagi jadval haiqda to'g'ri ma'lumot uchun T, noto'g'ri ma'lumot uchun N bilan belgilang

A) TTTT B) TTNTN C) TTNTT D) NTNTT

25. Qaysi javobda germofrodit hayvonlar keltirilgan?

- A) oq planariya, yomg'ir chuvalchangi, yashil temirchak
B) kolorado qo'ng'izi, daryo qisqichbaqasi, g'oz
C) baqachanoq, jigar qurti, askarida
D) bitiniya, olabug'a balig'I, shilliqqurt

26. K. D. Belyayev sun'iy tanlash yo'li bilan yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirish mumkinliginiq isbotlashda qaysi metorlardan foydalangan?

- A) eksperimental, kuzatish
B) sun'iy mutagenez, sentrifugalash
C) tarixiy, genetik injeneriya
D) molekular genetik, sitokimyoviy

27. Quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan organizmlarni aniqlang.

- a) oshqozoni ikki kamerali, gomoyoterm; b) oshqozoni ikki kamerali, poykiloterm;
c) oshqozoni bir kamerali, ko'richak o'simtasi juda uzun; d) oshqozoni to'rt kamerali, birlamchi konsument
1) ukki; 2) daryo qisqichbaqasi; 3) muflon; 4) qulon; 5) sayg'oq; 6) krevetka; 7) tapir.
A) a - 1; b - 4; c - 2; d - 6 B) a - 6; b - 1; c - 3; d - 7
C) a - 2; b - 1; c - 4; d - 5 D) a - 1; b - 6; c - 7; d - 5

28. Yil mobaynida issiqxonalarda o'simliklardan hosil olish, manzarali gullarni yetishtirishda qaysi biologik qonuniyatdan foydalaniladi?

- A) fototaksis B) fototropizm C) fotonastiya D) fotoperiodizm

29. Son suyagi uchun tegishli to'g'ri fikrni aniqlang.

- A) murtak varaqasining ektoderma qavatidan hosil bo'ladi, chanoq suyagi bilan bo'g'im hosil qilib birikadi
B) mitoz siklining profaza davrida hujayrasida 92 ta xromosomaga ega bo'ladi, boldir suyaklari bilan birikkan
C) uzun naysimon suyak hisoblanadi, kovagi yog'simon sariq ilik bilan, ko'migi qizil ilik bilan to'lgan
D) ustki tarafdan fassiya bilan qoplangan, unga to'rt va ikki boshli muskullar birikkan

30. Xushbo'y hidli no'xat o'simliklarini chatishtirib, chang donasining shakli va gulning rangi keyingi avlodda mustaqil holda irsiylanmasligini, duragaylarda ota-ona formalarining belgilari takrorlanishini aniqlagan olim(lar) ni belgilang.

- A) F. Galton B) U. Betson va R. Pennet C) G. Shpeman D) T. Morgan va uning shogirdlari

31. Rasmda keltirilgan nukleotid qaysi avtonom genetik tuzilma irsiyatida uchraydi?

https://t.me/Uzoqov_Sardor_Biologiya_testlari



A) adenovirusda B) tamaki mozaikasida C) DNK li bakteriofagda D) xrokokk hujayrasida

32. Quyidagilardan to'g'risini belgilang.

A) odam $\rightarrow 2n=46, n=23$; shimpanze $\rightarrow 2n=24, n=12$

B) suvarak $\rightarrow 2n=48, n=24$; makkajo'xori $\rightarrow 2n=10, n=5$

C) zog'ara baliq $\rightarrow 2n=104, n=52$; drozofilla $\rightarrow 2n=8, n=4$

D) shimpanze $\rightarrow 2n=48, n=24$; qalampir $\rightarrow 2n=48, n=24$

33. Uglevodlarni nomlari bilan juftlang.

1-glukoza, 2-fruktoza, 3-laktoza, 4-xitin, 5-karxmal, 6-maltoza, 7-selluloza

a-don shakari, b-sut shakari, c-paxta tolasi, d-zamburug'larning hujayra qobig'i, e-uzum shakari f-meva shakari

A) a-1, b-2, c-3, d-4, e-5, f-6 B) a-3, b-4, c-1, d-2, e-5, f-6

C) a-4, b-1, c-4, d-6, e-5 D) a-6, b-3, c-7, d-4, e-1, f-2

34. Oqsil 240 ta aminokislota qoldig'idan tashkil topgan. Birlamchi oqsil strukturasi sintezlangan gen, nechta nukleotiddan iborat?

A) 80 B) 720 C) 420 D) 480

35. AA va aa genotipli chatishtirildi. Olingan F1 o'simlik faqat o'z o'zidan changlansa, F4 avloddagi dominant gomozigotalar sonini aniqlang. (barcha o'simliklar soni 620 ta)

A) 271 B) 20 ta C) 140 D) 370

Ushbu test Uzoqov Sardor ustoz tomonidan tuzildi va ba'zilar boshqa ustozlarni testlaridan foydalanildi.

Testni bimalol ishlashingiz va tarqtaishingiz mumkin, sizdan faqat duo qilib qo'yishingizni so'raymiz xolos.

Murojaat uchun: @biologdomla1



https://t.me/Uzoqov_Sardor_Biologiya_testlari

https://t.me/Uzoqov_Sardor_Biologiya_testlari

UZOQOV SARDOR USTOZ

https://t.me/Uzoqov_Sardor_Biologiya_testlari